

**O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy prinsiplarining qonunchilikda aks etishi va takomillashtirilishi masalalari**

TDYU magistranti

*Uraqbayev Muxammadjon O'lmas o'g'li*

[muhammadjaan@mail.ru](mailto:muhammadjaan@mail.ru)

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari va prinslari, ularning mazmun – mohiyati, maqsadi, qisqacha tarixi, yangi tahrirda qabul qilinga konstitutsiyamizning tashqi siyosatga tegishli yangi moddalari kiritilganligi va ularning mohiyati xususida fikr – mulohazalar yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Tashqi siyosat, konstitutsiyaviy prinsplar, tinchliksevar siyosat, tashqi siyosiy faoliyat.*

Markaziy Osiyoda joylashgan O'zbekiston Respublikasi 1991-yilda Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishgandan so'ng tashqi siyosatda jiddiy o'garishlar ro'y berdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston qo'shilmaslik siyosatini olib bordi, betaraflikni saqlashga, mintaqaviy mojarolarga aralashmaslikka intildi. Mamlakat o'z chegaralarida barqarorlikni birinchi o'ringa qo'ydi. O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) ta'sischi a'zolaridan biri, qolaversa kollektiv xavfsizlik tashkilotining a'zosi bo'lgan, biroq 2012-yil 19-dekabr kuni tashkilotdan rasman chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konstitutsiyaviy prinsiplari umume'tirof etilgan norma, xalqaro shartnomalar, qonunlarga to'laqonli ravishda mos keladi. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan va qabul qilingan konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati birgina modda (17-modda) bilan ko'rsatilgan edi.

2012-yil "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi" O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tomonidan qabul

qilindi. Ushbu konsepsiya 4 ta bo'limdan iborat bo'lib, ular:

1. “Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlarni O'zbekiston manfaatlarini nuqtai nazaridan baholash”;
2. “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadi, prinsiplari va vazifalari”;
3. “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari”;
4. “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlari”<sup>1</sup>.

Ushbu konsepsiyaning 2-bandida O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy prinsiplari va vazifalarining maqsadi yoritilgan.

– dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashga hamda umume'tirof etilgan xalqaro norma va prinsiplarga rioya etishga sodiqlik;

– mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik;

– teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, chegaralar daxlsizligi, ichki ishlarga aralashmaslik, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik.

O'zbekiston pragmatik, oqilona va maqsadga muvofiq siyosat yuritish tarafdori bo'lib, tashqi siyosat maqsad va vazifalari davlatning uzoq muddatli manfaatlariga, uning resurslari va salohiyatiga mos kelishi prinsiplariga sodiq qoladi.

Konsepsiyada prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi qoida ham muhrlab qo'yilgan:

- O'zbekiston Respublikasining xalqi, tinchligi, xavfsizligidan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi davlatining modernizatsiya qilish jarayonlariga, hozirgi kundagi milliy qununchilik, shu bilan birga davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar hamda normalarning majburiyatlariga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, xalqaro tashkilotlarga va davlatlararo hamdo'stliklar,

---

<sup>1</sup> Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati prinsiplari. // [Elektron manba]. - Kirish rejimi: URL: <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12698-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati-asosiy-prinsiplari>

tuzilmalarga a'zo bo'lish va shu tashkilotlardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi;

- O'zbekiston Respublikasi tashqi aloqalarida tinchlikka asoslangan siyosat olib boradi, shuningdek xalqaro harbiy-siyosiy tuzilmalarga a'zo bo'lmaydi, yoki davlatlar o'rtasida tuzilgan harbiy-siyosiy blokka o'zganganida ham, ushbu bloklardan chiqish huquqini saqlab qoladi;

- O'zbekiston Respublikasiga qo'shni bo'lgan mintaqa davlatlaridagi keskinlik vaziyatlari, mojarolarning oldini olish maqsadida kerakli chora-tadbirlarni ko'radi, shu bilan birga o'z davlati hududida boshqa davlatlarning harbiy tuzilmalarini taoylashtirishga va davlat hududidan olib o'lib o'tish hamda saqlashga yo'l qo'ymaydi;

- O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga, "Mudofaa to'g'risida" gi qonun hamda "Mudofaa doktorinasi" ga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlatning suvereniteti, tinchligi hamda chegaralarining yaxlitligi, O'zbekiston Respublikasi xalqining tinchligi va farovonligini saqlash maqsadida tuziladi, ammo xalqaro tinchlik yo'nalishlariga qaratilgan harbiy operatsiyalarda ishtirok etmaydi.

Bundan tashqari, ushbu konsepsiyada O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining aniq vazifalari belgilab qo'yilgan:

- O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlaridan kelib chiqadigan maqsadlar hamda yo'nalishlarni xalqaro munosabatlarda himoya qilish va ilgari surishga qaratilgan strategiya olib borish;

- Markaziy Osiyo mintaqasini xavfsiz, shu bilan birga rivojlanayotgan davlatlar hamdo'stligi hududiga aylantirish va mintaqa davlatlari o'rtasida o'zaro tinchlikni saqlash. Mintaqadagi yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni, konfliktlarni yoki davlatlar o'rtasidagi mojarolarni diplomatik yo'l bilan hal qilish;

- O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi yetakchi davlatlar bilan ikki va ko'p tomonli o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yish, xalqaro tashkilotlarda faol ishtirof etish;

- Davlatning iqtisodiy, madaniy, transport, savdo-sotiq va boshqa

yo'nalishlardagi boshqa davlatlar bilan aloqalarini diversifikatsiya qilish hamda mamlakatga yuqori texnologiyalarni olib kelishni jadallashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga xalqaro investorlarni, investitsiyalarni, shu bilan birga yuqori darajadagi texnologiyalarni jalb qilish maqsadida jahon davlatlari bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorliklarni yo'lga qo'yish mexanizmlarini shakllantirish;

- O'zbekiston Respublikasi hudud jihatidan dengizdan yiroq bo'lganligi sababli, dengizga chiqadigan transport kommunikatsiya sohasida yo'l xaritalarini shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish, mamlakat va mintaqa miqyosida keng karidorga ega transport-logistika markazlarini shakllantirish jarayonlariga ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi statusini yanada oshirish, hamda davlat tomonidan xalqaro maydon uchun ilgari surilgan tinchlik yo'lidagi tashabbuslarini keng ko'lamda tatbiq etish;

- O'zbekiston Respublikasi ichki hududidagi hamda xorijdagi fuqarolarining qonuniy huquq hamda manfaatlarini himoya qilish<sup>2</sup>.

2023-yil 30-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi yangi tahriri umumreferendum yo'li bilan qabul qilindi. Ushbu yangilangan tahrirdagi konstitutsiyada hozirgi zamon xalqaro munosabatlarning tez suratlarda o'zgarishi, integratsion jarayonlarning o'sishi va boshqa omillar konstitutsiyaning tashqi siyosat bobiga yana bir moddaning qo'shilishiga sabab bo'ldi (17-18-moddalar).

17-modda.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir.

O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning

---

<sup>2</sup> Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati prinsiplari. // [Elektron manba]. - Kirish rejimi: URL: <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12698-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati-asosiy-prinsiplari>

umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi.

18-modda.

O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi "tinchliksevar" tashqi siyosatni amalga oshiradi degan yangi prinsping mazmunini yoritadigan bo'lsak, davlatlar o'rtasida doimiy do'stlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, jahon va mintaqa darajasida tinchlikni ta'minlash xalqaro munosabatlarning dolzarb masalasi hisoblanadi.

O'zbekiston o'z taraqqiyot bosqichida ochiq, o'zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik, yaxshi qo'shnichilik prinsplariga asoslangan tashqi siyosat olib bormoqda.

Tinchliksevar siyosat deganda, davlatlarning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy tizimlari va ularning rivojlanganlik darajasiga qaramasdan, erkinlik, tenglik, adolat va insoniyatning asosiy huquqlarini hurmat qilish va davlatlar va xalqlar orasida o'zaro hurmat va tinchlikni saqlash, mustahklash tushuniladi.<sup>4</sup>

Yuqoridagi O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati prinsiplari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi faoliyat olib bormoqda (Mudofaa doktorinasi, "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi" O'RQ-518-son, "O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3654-son).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu prinsiplar O'zbekiston Respublikasining davlatchilik tarixi, xalqning umummanfaatlari, hozirgi global davrdagi tashqi va ichki tahdidlar, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy integratsiyalar

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir) 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. // [Elektron manba]. - Kirish rejimi:URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

<sup>4</sup> <https://library-tsul.uz/yangilanayotgan-konstitutsiya-100-savolga-100-javob-2023/>

hamda xalqaro umume'tirof etilgan normalarni inobatga olgan holda shakllantirilgan. Bundan tashqari yuqoridagi prinsiplar shakllantirilishida jahon tajribasi tahlil qilinib o'rganilgan. Ushbu prinsiplar davlatning xavfsizligini ichki va tashqi omillardan yanada mustahkamlash, davlatning iqtisodiy jihatdan o'sish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini saqlash, fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik davlat qurish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati prinsiplari orqali davlat uzoq va strategik o'ylangan rivojlanishga erishadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

**1.** Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati prinsiplari. / / [Elektron manba]. - Kirish rejimi:URL: <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12698-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati-asosiy-prinsiplari>.

**2.** Buxoro davlat universiteti elektron kutubxonasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati prinsiplari. / / [Elektron manba]. - Kirish rejimi:URL: <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12698-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati-asosiy-prinsiplari>.

**3.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrir) 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. / / [Elektron manba]. - Kirish rejimi:URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

**4.** <https://library-tsul.uz/yangilanayotgan-konstitutsiya-100-savolga-100-javob-2023/>.